



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-iyul

355-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Gidroenergetika sohasini isloh qilish chora-tadbirlarini jadallashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 12-iyuldagi PQ-252-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 321-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Gidroenergetika sohasini isloh qilish chora-tadbirlarini jadallashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 12-iyuldagi PQ-252-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 19-iyuldagi 321-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 19-iyuldagi 321-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda “O‘zbekgidroenergo” AJning (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat) 2028-yil yakuniga qadar gidroelektr stansiyalari umumiy quvvatini 5 508 MVtga yetkazish, shu jumladan umumiy quvvati 1 600 MVt bo‘lgan gidroto‘plash elektr stansiyalarini qurish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

2024-2028-yillarda gidroenergetika sohasini yanada rivojlantirish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturi (keyingi o‘rinlarda - Dastur) tasdiqlanganligi:

“O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan umumiy quvvati 1 018 MVt bo‘lgan gidroelektr stansiyalarini qurish bo‘yicha amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlarni jalb qilgan holda umumiy quvvati 449 MVt bo‘lgan gidroelektr stansiyalarini qurish loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 1a-ilovaga muvofiq;

Gidroenergetika sohasida xususiy investorlar ishtirokida amalga oshiriladigan umumiy quvvati 2 275 MVt bo‘lgan investitsiya loyihalari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Gidroenergetika sohasini rivojlantirish bo‘yicha respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarida - Respublika komissiyasi) 3-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilganligi;

Respublika komissiyasi (A.Aripov):

xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlardan jalb qilinayotgan mablag‘larning o‘z vaqtida o‘zlashtirilishini hamda Dasturda belgilangan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jalb qilinishini;

Dasturda inobatga olingan investitsiya loyihalarining loyihaoldi hujjatlarini o‘z vaqtida ishlab chiqish hamda investitsiya loyihalari belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishini;

gidroelektr stansiyalarini qurish va ulardan foydalanish uchun zarur uskuna va ehtiyot qismlarning ishlab chiqarilishini mahalliy lashtirish va sanoat kooperatsiyasi orqali bosqichma-bosqich ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishini;

yangi gidroelektr stansiyalarini qurish va ishlab turganlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishning har bir bosqichida xalqaro qurilish standartlari va ilg‘or xorijiy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini;

Dasturning o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining gidroelektr stansiyalarini qurishga xususiy tadbirkorlarni jalb etish va ularga ko'maklashish borasida amalga oshirayotgan ishlari to'g'risidagi hisobotlarining bir yilda kamida ikki marta eshitib borilishini;

Dasturda belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishining qat'iy nazoratga olinishini hamda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha vazirlik va idoralar faoliyatining muvofiqlashtirilishini ta'minlashi;

Respublika komissiyasiga, zaruratga ko'ra, Dasturning umumiy parametrlari va ko'rsatkichlarini saqlagan holda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi berilganligi;

Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda "O'zbekgidroenergo" AJning (keyingi o'rinlarda - Jamiyat) 2028-yil yakuniga qadar gidroelektr stansiyalari umumiy quvvatini 5 508 MVtga yetkazish, shu jumladan umumiy quvvati 1 600 MVt bo'lgan gidroto'plash elektr stansiyalarini qurish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

Mahallalarda mikro va kichik gidroelektr stansiyalari xususiy sektor ishtirokida qurib ishga tushirilishini jadallashtirish maqsadida:

a) bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari rahbarligida ishchi guruhlar (keyingi o'rinlarida - ishchi guruhlar) tuzilishi;

b) ishchi guruhlar:

bir oy muddatda mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurish imkoniyati mavjud loyiha maydonlari ro'yxatini shakllantirishi;

mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishga mahalliy tadbirkorlarni keng jalb qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishi;

"Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish" AJ bilan birgalikda mikro va kichik gidroelektr stansiyalarini qurishda loyiha tashabbuskorlarini auksion savdolari orqali aniqlash maqsadida loyihalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni asosida auksion savdolariga chiqarilishini ta'minlashi;

har chorak yakuni bilan amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risidagi hisobotlarni Respublika komissiyasiga kiritib borishi belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi e'tiborga olinsin va ma'lumot ijro uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov